



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

9 (83) 2025

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

9 (83)

2025

сентябрь

www.bsmi.uz

<https://newdaymedicine.com> E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

Received: 20.08.2025, Accepted: 06.09.2025, Published: 10.09.2025

UDK 371.12.85.73:61

XORAZM VILOYATIDA YASHOVCHI O'ZBEK BOLALARINING INDIVIDUAL TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI (SHOVOT TUMANI MISOLIDA)

Rajapov Sarvarbek Safarboyevich <https://orcid.org/0009-0005-4763-1621>

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Urganch filiali O'zbekiston, Xorazm viloyati, Urganch shahri,
Al-Xorazmiy ko'chasi 28-uy Tel: +998 (62) 224-84-84 E-mail: info@urgfildmu.uz

✓ Rezyume

Ushbu maqolada Xorazm viloyati Shovot tumanida istiqomat qiluvchi o'zbek bolalarining jismoniy rivojlanish dinamikasini bir yil davomida (2024-2025) o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda 20 nafar bolalar (10 nafar o'g'il bolalar, 10 nafar qiz bolalar) ishtirok etgan bo'lib, ularni ikki yosh guruhiga (12 yosh va 14 yosh) bo'lib o'rganildi.

Kalit so'zlar : Tana vazni, random so'rov, tana konstitusiyasi, yosh guruhi, astenik, normastenik, giperstenik.

ИНДИВИДУАЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТЕЙ УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОСТИ, ПРОЖИВАЮЩИХ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ (НА ПРИМЕРЕ ШАВАТСКОГО РАЙОНА)

Ражанов Сарварбек Сафарбоевич <https://orcid.org/0009-0005-4763-1621>

Ургенчский филиал Ташкентской государственной медицинской университета
Узбекистан, Хорезмская область, город Ургенч, улица Ал-Хорезми №28
Тел: +998 (62) 224-84-84 E-mail: info@urgfildmu.uz

✓ Резюме

Цель данной статьи – изучение динамики физического развития детей узбекской национальности, проживающих в Шаватском районе Хорезмской области, за один учебный год (2024–2025). В исследовании приняли участие 20 детей (10 мальчиков, 10 девочек), разделенных на две возрастные группы (12 и 14 лет).

Ключевые слова: Масса тела, выборочное обследование, конституция тела, возрастная группа, астеник, нормостеник, гиперстеник.

INDIVIDUAL TYPOLOGICAL CHARACTERISTICS OF UZBEK CHILDREN LIVING IN THE KHOREZM REGION (ON THE EXAMPLE OF SHOVOT DISTRICT)

Rajapov Sarvarbek Safarboyevich <https://orcid.org/0009-0005-4763-1621>

Urgench branch of the Tashkent Medical Academy Uzbekistan, Khorezm region, Urgench city, Al-Khorezmi street No. 28 Tel: +998 (62) 224-84-84 E-mail: info@urgfildmu.uz

✓ Resume

This article aims to study the dynamics of physical development of Uzbek children living in the Shovot district of the Khorezm region for one year (2024-2025). The study involved 20 children (10 boys, 10 girls), who were divided into two age groups (12 years and 14 years).

Keywords: Body weight, random survey, body constitution, age group, asthenic, normosthenic, hypersthenic.

Dolzarbligi

Hozirgi murakkab davrda shiddat bilan atrof-muhitni o'zgarishi, bolalar sog'ligida sezilarli alomatlar qoldirmoqda. Shu sababdan har bir o'sayotgan bolani o'rta statistib birlik sifatida qaramasdan ularni alohida individum sifati o'rganib tana tuzilishi (konstitusiyasi)ni aniq qilib o'rganish bizga ma'lum bir hududda yashovchi bolalarning sog'ligi ularning qaysi kasallikka moyilligini tahmin qilishga va kerakli chora ko'rishga, eng kamida profilaktik tadbirlar ko'rishga imkon beradi.

Ilmiy ishning maqsadi: Xorazm viloyatida yashovchi o'zbek bolalarining individual tipologik tavsifini o'rganishga qaratilgan. Bu bizga o'rganilayotgan har bir bolani o'rta statistik raqam emas balki alohida individumdek qarashni beradi.

Material va tekshirish usullari

Tadqiqotda quyidagi parametrlar olindi: Bo'y (sm), yarim o'tirgandagi bo'yi (sm), teri osti yog' qatlami (mm), vazn (kg), tana tuzilishi tipi (astenik, normastenik, giperstenik) kabilar. Bo'y va vaznni o'lchash bolaning yoshiga nisbatan normal rivojlanayotganligini aniqlashning asosiy ko'rsatkichi hisoblanishi hech kimga sir emas. O'sishning sekinlashishi yoki vazn yo'qotish yomon ovqatlanish, me'da-ichak kasalliklari, gormonal muammolar (masalan, gipotiroidizm) yoki boshqa surunkali kasalliklarning belgisi bo'lishi mumkin. Ortiqcha vazn bolalarda semirish, qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshiradi. Buni erta aniqlash orqali sog'lom turmush tarzini joriy qilish mumkin. Yarim o'tirgandagi bo'yni o'lchash bu usul tananing yuqori qismining o'sishini (tana va bosh aylanasing o'sishi bilan birga) aniqroq aks ettiradi. Bu, ayniqsa, miya va nerv tizimining rivojlanishini baholashda ishlatilishi mumkin.

Oddiy tarozi faqat umumiy vaznni ko'rsatadi. Bu vazn yog'mi yoki mushaklarni kamayayotganini farq qilish mushkul masala. Mushak yog'dan og'irroq bo'lgani uchun, mushak massasi oshib, yog' yo'qotilsa, vazn baribir bir xil bo'lib qolishi yoki hatto ortishi mumkin. Teri osti yog'ini o'lchash bizga haqiqiy natijani (yog' miqdorining kamayishi) ko'rsatadi.

Ma'lumotlar 2024 va 2025 yillarda ikki marta qayd etilgan bo'lib retrospektiv, statistik tahlil va antropometrik taqqoslash usullari yordamida amalga oshirilgan.

Jadval 1.

№	Jinsi	Yoshi	Yosh guruhi	Soni
1.	Erkak	12	2-bolalik davri	5 nafar
2.	Ayol	12	2-bolalik davri	5 nafar
3.	Erkak	14	o'smirlik	5 nafar
4.	Ayol	14	o'smirlik	5 nafar

*Jadvalda tekshiruv o'tkazish uchun yig'ilgan bolalar jinsi, yosh va yosh guruhini aks etgan. Tahlillar o'tkazilgan onda ishtirokchilarning ayrim demografik xususiyatlar: Jins bo'yicha taqsimot: 20 nafar: 50% o'g'il bola, 50% qiz bola. Yosh guruhlari: 10 nafar: 50% 12 yosh (2-bolalik davri), 10 nafar: 50% 14 yosh (o'smirlik davri). Barcha ishtirokchilar yaxshi oilaviy sharoitda yashaydi. Umumiy ahvoli barcha ishtirokchilar uchun tahlillar payti qoniqarli deb baholangan.




Diagramma 1.

Bunda 2024-yilda tekshiruvga olingan bolalarning tana tuzilishining (xususiyati) astenik 35% - 7 nafar, normastenik 30% - 6 nafar, giperstenik 35% - 7 nafarni tashkil etgan. 2025- yilda esa kuzatuvchilarda o'zgarish astenik 25% - 5 nafar, normastenik 40% - 8 nafar, giperstenik 35% - 7 nafarni tashkil etgan.

Jadval 2. Jismoniy ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar:

Ko'rsatkich	O'rtacha o'zgarish	*Standart chetlanish
Bo'y	+1.9 sm	± 1.2 sm
Yarim o'tirgandagi bo'y	+1.55 sm	± 2.5 sm
Teri osti yog' qatlami	+0.13 mm	± 0.13 mm
Vazn	+3.51 kg	± 2.8 kg

*Standart chetlanish - bu ma'lumotlar to'plamidagi qiymatlarning o'rtacha qiymatdan qanchalik tarqalganligini (chetlanishini) ko'rsatadigan statistik ko'rsatkichdir.




Diagramma 2. Yash guruhlari bo'yicha farq. Bunda 12 yosh va 14 yosh qiz va o'g'il bolalar orasidagi bo'y va vazndagi o'zgarishlar keltirilgan.




Diagramma 3. Jinslar bo'yicha farq. Bunda o'rganilayotgan 12 va 14 yoshdagi o'g'il va qiz bolalardagi o'zgarishlar soni jins bo'yicha keltirilib o'tilgan.

Olingan natijalar va tahlillar

Xorazm viloyati Shovot tumanida yashovchi 12-14 yosh, 2-bolalik davri va o'smirlik davriga kiruvchi 20 nafar bolalarning 2024-2025 yillar mobaynida ularning o'rtacha antropometrik ko'rsatkichlari va o'sish su'ratlarini aniqlash shuni ko'rsatadiki, bir yil davomida kuzatilgan bolalarning jismoniy rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar ro'y bergan. Bo'ydagi o'sish (o'rtacha +1.9 sm) va vazndagi o'sish (o'rtacha +3.51 kg) bolalar va o'smirlar uchun normal fiziologik rivojlanish diapazonida joylashgan.

Tana tuzilishidagi o'zgarishlar - astenik tipdagi bolalar sonining kamayishi (35% dan 25% gacha) va normastenik tipdagi bolalar sonining oshishi (30% dan 40% gacha) ayniqsa qiziqarlidir. Bu o'sish davrida bolalarning tana tuzilishining normastenik tipga yaqinlashish tendensiyasini ko'rsatadi.

Yosh guruhlari bo'yicha farqlar 14 yoshli bolalarning 12 yoshli bolalarga nisbatan bir oz tezroq o'sish sur'atlariga ega ekanligini ko'rsatadi, bu o'smirlik davridagi tez o'sish bilan izohlanishi mumkin.

Jinslar bo'yicha farqlar qiz bolalarning o'g'il bolalarga nisbatan bir oz tezroq o'sishini ko'rsatadi, bu esa o'smirlik davrida qizlarning, o'g'il bolalarga nisbatan erta jismoniy rivojlanishi bilan izohlanishi mumkin. Xorazm viloyati Shovot tumanidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi bir yil davomida normal fiziologik me'yorlar doirasida sodir bo'lishi kuzatilmoqda. Statistik tahlillar ikkala jins vakillarida yosh ulg'aygani sari normastenik tip ustunlik qila boshlashini ko'rsatmoqda. 14 yoshli bolalar 12 yoshli bolalarga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega. Qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan bir oz yuqori o'sish ko'rsatkichlariga ega.

Xulosa

Xulosa o'rnida quyidagilarni keltirib o'tish joizki Xorazm viloyati Shovot tumanida yashovchi bolalarning individual tipologik xususiyatlarini tahlillab chiqish bizga tana tuzilishini (konstitutsiyasini) o'rganish, bolalarning qaysi kasalliklarga moyilligini tahmin qilishga yordam beradi. Shovot tumanidagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi bir yil davomida qisman normal fiziologik me'yorlar doirasida sodir bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Логвина, Т. Ю. Диагностика и коррекция физического состояния детей дошкольного возраста :
2. метод. рекомендации / Т. Ю. Логвина, В. Н. Шебеко, В. А. Шишкина. – Минск : Изд. В. М. Скаун 1996; 32 стр.
3. Муталиева Ш. Б. Социально-психологические характеристики формирования интеллектуальных способностей у дошкольников // Uzbek Scholar Journal. 2022;11:117-121.
4. Нигматова Ф. У., Айдаркулова К. А., Исаева Д. Х. Исследование антропометрических показателей детей и подростков для проектирования школьной формы // Вестник Московского университета. Серия 23. Антропология. 2021;1:32-41.
5. Прахин Е. И., Грицинская В. Л. Характеристика методов оценки физического развития детей // Педиатрия. Журнал им. ГН Сперанского. 2004;83(2):60-62.
6. Рахимов Б. Б. Особенности заболеваемости детей и подростков Республики Узбекистан, страдающих ожирением // Гигиена и санитария. 2017;96(3):274-277.
7. Алимарданова М. Гигиеническое обоснование рациональной организации физического воспитания детей младшего школьного возраста: дис. – Ташкентская медицинская академия, 2011.

Qabul qilingan sana 20.08.2025